

**O‘ZBEK TILIDAGI BA’ZI TEONIMLARNING ETIMOLOGIYASI
XUSUSIDA
ON THE ETYMOLOGY OF SOME THEONYMS IN UZBEK
LANGUAGE
О НЕКОТОРЫХ ЭТИМОЛОГИЯХ ТЕОНИМОВ В УЗБЕКСКОМ
ЯЗЫКЕ**

Raximova Norjongul Mahsud qizi
UrDU tayanch doktoranti, UrIU o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘zbek tilidagi diniy leksikaning muhim komponenti bo‘lgan teonimlarning (Tangri, Xudo, Parvardigor) lingvistik kelib chiqishi hamda ularning madaniy-ma’naviy kontekstdagi o‘rni tadqiq etiladi. Turli tillar ta’sirida shakllangan bu onomastik birliklarning tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy qo‘llanishi ilmiy lingvistik metodlar asosida tahlil qilinadi.

Kalit so‘z: teonim, teonimika, Tangri, Parvardigor, Xudo, Rab, Lot-Manot.

Annotation: This article investigates the linguistic origins of theonyms (Tangri, Xudo, Parvardigor) as essential components of religious lexicon in the Uzbek language, along with their cultural and spiritual significance. The study analyzes the historical evolution and contemporary usage of these onomastic units, which have developed under the influence of various languages, employing scientific linguistic methodologies.

Keywords: theonym, theonymy, Tangri, Parvardigor, Khudo.

Аннотация: В данной статье исследуется лингвистическое происхождение теонимов (Тангри, Худо, Парвардигор) как важных компонентов религиозной лексики узбекского языка, а также их место в культурно-духовном контексте. Анализируется историческая эволюция и современное употребление этих ономастических единиц, сформировавшихся под влиянием различных языков, с применением научных лингвистических методов.

Ключевые слова: теоним, теонимика, Тангри, Парвардигор, Худо.

KIRISH. Zamonaviy tilshunoslikda til va din o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar teolingvistika fanining asosiy obyekti hisoblanadi. Jahon ilmiy jamiyatida ushbu sohaga bo‘lgan qiziqishning kuchayishi lingvistik hodisalarni madaniy, tarixiy va falsafiy kontekstda o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Keyingi yillarda teolingvistikaga oid bir qator tadqiqotlar amalga oshirildi, bu sohaning boshqa fanlar, xususan, falsafa, sotsiologiya, psixologiya bilan bog‘liqlikda amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlari ko‘lami ham kengaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. O‘zbek tilshunosligida mifonim va teonimlar xalq ruhining ong va tilda aks etish hodisasi sifatida N.Uluqov, T.Yuldashev, M.Umarxo‘jayev, M.Galiyeva, Sh.Sultonova, Sh.Maxmaraimova, Sh.Amonturdiyeva, Sh.Yusupova, N.Sharafutdinovalar tomonidan tadqiq etilgan.

O‘zbek tilshunosligida teonimlar – xudo nomlari va ularning etimologiyasi – mavzusi nisbatan yangi bo‘lib, uning o‘rganilishi turkiy, eroniy va arab tillarining lingvokulturologik ta‘sirini anglashda muhim ahamiyatga ega. A.Schimmel islomiy terminologiyaning mahalliy tillarga moslashuvi jarayonini “din va tilning simbiozi” deb ta‘riflagan bo‘lsa, bu jarayonni o‘zbek tilidagi Alloh, Tangri, Xudo kabi teonimlar misolida kuzatish mumkin.

NATIJALAR. Insoniyat qadimdan o‘zidan buyuk, ilohiy kuchlar borligiga ishongan, ularni izlagan. Bu insonlar hayotidagi dinlarning mavqeyini oshishiga sabab bo‘lgan. Dinning mavqeyi oshishi bilan ilohiy kuchlar, ilohlar haqidagi tasavvurlar ham o‘zgargan. Bu o‘zgarish ularning tilida ham aks etgan. Dastlab ilohlar haqidagi tasavvurlar ko‘p xudolikka tayangan bo‘lsa, keyinchalik yakka iloh tushunchasi paydo bo‘lgan, bu ilohlar turli dinlarda turlicha talqin qilingan. O‘zbek xalqi o‘z tarixi davomida bir qancha dinlarga e‘tiqod qilgan. Shunga ko‘ra, o‘zbek tili leksikonida mavjud bo‘lgan teonimlarni Islomgacha bo‘lgan davrlarda qo‘llangan va Islom dini bilan bog‘liq bo‘lgan teonimlarga ajratish mumkin. Bu davrlarda qo‘llangan teolingvistik birliklarni o‘rganish o‘zbek teolingvistikasi uchun noyob ma‘lumotlarni topishga turtki bo‘la oladi. Qadimgi turkiy panteonni tiklash qiyin. Birinchi navbatda, bu atamalar qadimgi turkiy davrda xudo nomlari bo‘lganmi, yoki keyinroq shunday ma‘noga ega bo‘lganmi noma‘lum [8,562]. Ushbu maqolada ayrim teonimlarning etimologiyasi haqida fikr yuritimiz.

O‘zbek tilida *Alloh, Tangri, Haq, Xoliq, Razzoq, Robbi, Parvardigor, Parvardigori olam, Xudo, Rahim, Rahmon, Jabbor, Qodir, G‘affor, G‘ufiron, Ug‘on,*

Karim, Buzurg, Yaratgan, Olamlar egasi, Sattor, Rahmon, Mavlon, Subhon Azim, Subhon Alloh, Subhon Izim kabi bir qancha teonimlar mavjud.

MUHOKAMA. O‘zbekcha diniy matnlarda **Alloh**, turkiy **Tangri**, fors-tojikcha **Xudo** so‘zlarining barchasi qo‘llanadi. Alloh lafzi barcha tillarda, tangri faqat turkiy tillarda, Xudo so‘zi fors-tojik, o‘zbek, hind, urdu, pushtu, dariy va turkiy tillarda ishlatiladi [9, 81]. **Alloh** teonimi arab tilidan o‘zbek tiliga o‘zlashgan leksik birlik hisoblanib, o‘zbek tilidagi eng muhim teonim hisoblanadi. J.Omonturdiyevning “Ma’rifiy-irfoniy istilohlar lug‘ati”da **Alloh** teonimining izohi quyidagicha berilgan: barcha mavjudot borliqni yaratgan, azaliy va abadiy barhayot, ibtido va intihosiz, hamma narsani bilguvchi, ko‘ruvchi, eshituvchi, hamma narsaga qodir, mutakallim, hech narsaga o‘xshamas kabi subutiy sifatlarga ega bo‘lgan oliy Zot. “O‘zbek tili izohli lug‘ati”da **Alloh** – ilohiy kuch, xudo. Islom dinida butun mavjudotni yaratgan oliy ilohiy kuch, xudo. “Islom ensiklopediyasida” **Alloh** – Tangri, Ma’budi bar haq, Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘atida **Alloh** – xudo, tangri deb izohlanadi. Sh.Rahmatullayev muallifligida nashr etilgan “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da Alloh so‘zining izohi berilmagan. Aliybeg Rustamiyning ““Bismilloh”ning ma’nosi” kitobida Alloh so‘ziga taalluqli bir qancha ma’lumotlarni keltiradi. Uning ma’lumotiga ko‘ra, arab tilshunoslarining bobokaloni Sibavayhiy “**Alloh**” so‘zining ikki qavli mavjud ekanini ta’kidlaydi. “Alloh” so‘zining asli “al-iloh” bo‘lib, al va iloh so‘zlari qo‘shilganda “i”ni tushishi natijasida, “Alloh” hosil bo‘lgan. Uning fikricha, “alloh” so‘zining negizi “loh” bo‘lib, uning o‘zagi “burkanmoq” ma’nosidagi “layh” so‘zidir. “Layh”ga “al” qo‘shilgan natijada “Alloh” hosil bo‘lgan.

Bizning fikrimizcha, “Alloh” so‘zi aslida “Ilah” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “sig‘inadigan narsa”, “xudo” degan ma’nolarni anglatadi. “Ilah” so‘zi ancha qadimiy so‘z bo‘lib, unga aniqlik ma’nosini beruvchi “-al” qo‘shimchasi qo‘shilib, “al-ilah” shaklida qo‘llangan. Keyinchalik talaffuzda “al-ilah” “Alloh” shakliga kelgan.

Tangri so‘zi turli adabiyotlarda va turli tillarda xilma-xil shakllarda qo‘llangan teonim hisoblanadi. **Tangri** so‘zida *ko‘k, samo* ma’nolari bilan *yagona iloh* ma’nosining faollashganini ko‘rishimiz mumkin [4, 71]. Eng qadimgi xudolarning nomlarini M.Bakirov “Eng qadimgi mifologik xudolar nomlarining parallelizm fenomeni” nomli maqolasida quyosh va osmon mifologiyasi bilan bog‘laydi, Masalan, qadimgi turkiy osmon xudosi **Tengri/Tengeli/Teñri/Tanri**, u

xunlar orasida tha-riəj (S.A. Starostinning rekonstruksiyasi) shaklida ham mavjud. U shuningdek, **Tenger, Tengri, Tengere va Tanara** shakllarida mongol va tungus-manjur pantheoniyada ham mavjudligini aytib o‘tadi. Tadqiqotchi ko‘plab tillarda **tan/tañ/ton/tin/ten/teñ (don/din/den/deñ)** ildiz-asos qadim zamonlardan beri tovush, gumburlashni, masalan, hind-ariy-vedik tilida *tanayatu* – momaqaldiroq, qadimgi turkiy tilida *tan/tañ* – gumburlash, momaqaldiroq, *dañ* – momaqaldiroqning gumburlashi, *tin* – chuvash tilida yomg‘irsiz momaqaldiroq, xitoy tilida *tan/tyan* – tovush, gumburlash, *tangu/tyangu* – turli xil tovushlar chiqaradigan barabanlar, nemis tilida *donnar* – momaqaldiroqning gumburlashi, *donner* – momaqaldiroq, fransuz tilida *tonnere* – momaqaldiroq, skandinaviya tilida *tonar* – tovush, gumburlash ma’nolarini ifodalashini keltiradi. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da bu so‘zning etimologiyasi berilmagan. “Древнетюркский словарь”da “tangri” teonimi to‘rtta lug‘at maqolada izohlanadi. Shularning birinchisida, osmonda mavjud bo‘lgan, oliy qudrat egasi deb e’tirof etilgan ilohiy mavjudot ma’nosida; ikkinchi maqolada ilohiy kuch, qudrat (xudoning o‘zi yoki uning qudrati) ma’nosida; uchinchi maqolada osmon ma’nosida; to‘rtinchi maqolada yuqori holatdagi narsalarni ifodalashda ishlatilishi qayd etiladi [2, 577].

Tangri etimologiyasi K.Musayevning tahliliga ko‘ra: asl shakli *teqir (Highter –tey* – “baland ko‘tarilish” + *ir* “faoliyat ko‘rsatgichi” dan kelib chiqqanligi tahmin qilinadi.

Tangri islomgacha ham mavjud bo‘lgan teonim hisoblanib, osmon ma’nosida turkiy matnlarda uchraydi. Islom dini kirib kelishi bilan unga parallel ravishda Alloh teonimi qo‘llana boshlagan. E.Tenishev, A.Dibolar hammuallifligida nashr etilgan “Turkiy tillarning qiyosiy-tarixiy grammatikasi” kitobida **Tangri**ning turkiy matnlarda uch xil ma’noda qo‘llangani haqida ma’lumotlar mavjud: 1.Osmon. 2.Xudo. 3.Hukmdor ma’nolarida.

Rab – Xudo, Parvardigor [1, 590]. Rab teonimi arab tilidagi Rabb (رب) so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, “tarbiyachi”, “himoya qiluvchi”, “boshqaruvchi” ma’nolarini anglatadi. O‘zTILda olloh, xudo; janob; hukmdor; xo‘jayin. Xudo, tangri, parvardigor.

Xudo – Xudo so‘zining umuman iloh mazmunini anglatishi tasodifiy emas, chunki mazkur so‘z pahlaviy tilida *shoh* ma’nosini ifodalagan bo‘lib, *xvatāya//xvatāy* shaklida ishlatilgan. Jumladan, eroniy shohlar haqida bitilgan kitob “*Xvatāynamak*” (“Shohnoma”) deb nomlagan [12, 61]. Tadqiqotchi *xvatāy* so‘zining

dastlabki ma’nosi “ega”, “sohib” ekanini, *kadxudo*, *xonaxudo* kabi so‘zlar tarkibida qo‘llanganini aytib o‘tadi. Xudo so‘zining etimologiyasi Wikipediya sahifalarida shunday izohlanadi: *xodā* (خدا) so‘zidan olingan bo‘lib, u esa o‘z navbatida roman-german tillaridagi *god*, *gott*, *gud* (hammasi qadimiy olmon tilidagi *gudā*ndan kelib chiqqan) so‘zlari bilan o‘zakdoshdir. “O‘zbek tilining etimologik lug‘ati”da bu so‘zning etimologiyasi berilmagan. *Izoh.uz* saytida Xudo so‘zi quyidagicha izohlanadi: Diniy tushunchaga, xususan islom diniga ko‘ra, butun mavjudotni, butun olamni yaratgan va uni boshqaruvchi oliy ilohiy kuch; har qanday dinning e’tiqod qilish asosi (musulmonlarda: Alloh so‘zining sinonimi).

Parvardigor – forscha so‘z bo‘lib, yaratib so‘ng parvarish qiluvchi, hifzu himoyasida saqlovchi – Alloh degan ma’noni anglatadi [6,101]. Parvardigor ko‘pincha diniy matnlarda qo‘llaniluvchi, Allohning qudrati, rahmatini ifodalash uchun ishlatiladigan teonimdir. “Фарҳанги забони тоҷикӣ” lug‘atida “parvardigor” teonimining uchta lug‘at maqolasi keltirilgan. Shularning birinchisida, tarbiyachi, murabbiy, muallim; ikkinchi lug‘at maqolada himoyachi, qo‘riqchi; uchinchisida xudoning ismlari yoki sifatlaridan biri sifatida izohlangan [11, 28]. **Parvardigor** qadimgi fors tiliga oid “paravardan” fe’lidan kelib chiqqan bo‘lib, ba’zi manbalarga ko‘ra bu so‘z 3-7-asrlardagi forsiy manbalarda uchrashi aytilgan. 7-9-asrlardan esa bu so‘zning **xudo**, **yaratguvchi** ma’nosida keng tarqalgani haqida ma’lumotlar uchraydi.

Qadimgi turklar ishonishganki, koinotni 17 iloh boshqargan: Tangri, Yer-Suv, Umar, Erlik, Yer, Suv, Olov, Quyosh, Oy, Yulduzlar, Shamol, To‘fon, Yomg‘ir, Havo, Bulutlar, Momaqaldiroq, Kamalak. Mo‘g‘ullar esa 99 tangri (koinot ilohlari) mavjud deb hisoblashgan [8, 564].

Islom dinidan oldingi teonimlarga xalq dostonlarida uchraydigan **Lot-Manot** teonimini misol qilish mumkin. “Go‘ro‘g‘lining tug‘ilishi” dostonida quyidagi o‘rinlarda ushbu teonimlarni uchratamiz: “Ko‘rdilarki, Lot, Manot, tilla payg‘ambar, kumush choharyorlar Bibi Hilolni o‘rtaga olib turibdi”. Lot-Manot J.Omonturdiyevning “Ma’rifiy-irfoniy istilohlar lug‘ati”da shunday izohlanadi: Islomdan oldin arablar sig‘ingan butlar (xudolar)ning boshliqlari Lot va Manot (erkak va ayol)larning nomlari bilan qasamyod qilganlar. Loyamut ham shunday teonimlardan biri. **Loyamut** – o‘lmas, o‘lim ko‘rmaydigan, abadiy va azaliy mavjud (Allohni sifatlovchi kalima) [6, 69].



Sanam – har xil narsalardan: yog‘och, tosh, ganch, loy, metall kabilardan yasalgan sig‘iniladigan, inson qiyofasidagi but, ma‘bud [6, 116].

But – ganch, yog‘och kabi turli xil narsalardan odam qiyofasida yasalgan, sig‘inilishi kerak bo‘lgan ilohlar. Bularga sig‘inuvchilar butparastlar deyilgan [6, 30]. But teonimini ham xalq dostonlarida uchramiz: “Qarasalar, *but*larning hammasi butxonada yo‘q...buning o‘lganini lotdan *but*dan ko‘rib...” [7, 21]

But so‘zining kelib chiqishi aniq emas. But eroncha – *but*, *ma‘bud*; “Avesto”da bütaj – jin nomi; So‘g‘d tilida buddha – *budda* [8, 591]. Ko‘pgina tadqiqotchilar bu so‘zni turkiy tillarga fors tili orqali kirib kelgan deb hisoblaydi. Qadimgi turkiy yodgorliklarda bu so‘z XIII asrlardan, aniqrog‘i, Ahmad Yugnakiyning didaktik she‘rlarida uchrashi kuzatilgan: öz elgin but etip idim bu dedi – “o‘z qo‘li bilan but yasab, “bu mening xudoyim”, dedi [8, 591]. Bu so‘zning turkiy tillarda “ma‘bud” va “haykal” ma‘nolarida ishlatilgani haqida ma‘lumotlar mavjud.

Ibtidoiy odamlar quyosh va olovni muqaddas deb bilganlar, ularga sig‘inganlar. Strabonning yozishicha, “Massagetlar quyoshni tangri deb bilganlar va uning sharafiga otlarni qurbonlik qilganlar”. Massagetlar quyoshga sig‘inganligini Geredot ham tasdiqlaydi: “Massagetlar xudolardan faqat quyoshga e‘tiqod qiladilar va unga otlarni qurbonlik qiladilar. Bu qurbonlikning ma‘nosi shundan iboratki, xudolar ichida eng tezkori bo‘lgan bu tangriga eng uchqur jonivorni hadya etish lozim deb biladilar” [3, 143]. O‘rta Osiyo xalqlarining quyoshni muqaddas bilib sig‘inishiga bevosita aloqador bo‘lgan bir odat – ertalab quyosh chiqqan paytda unga ta‘zim qilish, quyosh nomi bilan qasam ichish odatlari mavjudligi ham “Avesto” dagi quyosh kul‘ti inonchlariga bog‘lanadi. Fikrimizcha, “**quyosh**” insoniyat tilida ibtidoiy davrlarda qo‘llangan teonimlardan biri ekanligini yuqoridagi tarixiy ma‘lumotlar tasdiqlaydi.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Teonimlarning etimologiyasi naqadar murakkab bo‘lmasin, insoniyatning ma‘naviy merosini tushinishga yordam beradigan kalitdir. Ular orqali biz insoniyatning qadimiy merosini, dunyoqarashini, tabiatga munosabatini va tillarning o‘zaro ta‘sirini aniqlay olamiz. Maqolada keltirilgan tahlillar o‘zbek teonimikasining rivojlanishiga hissa qo‘shishi bilan birga, turkiy xalqlarning diniy leksikasini qiyosiy o‘rganish uchun metodologik asos yaratadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. – Тошкент, 1983.
2. Древнетюркский словарь. – М.: Наука, 1969.
3. Древние авторы о Средней Азии. – М., 1940.
4. Mahmudov R. O‘zbek tilida avestizmlar. – Xiva, 2020.
5. N.Sharafutdinova. O‘zbek tilida teonimlar va ularning lingvopoetik tahlili. Filol.fan.b.fals.dok...diss.avtorefer. – Farg‘ona, 2024.
6. Омонтурдиев Ж. Маърифий-ирфоний изтилохлар изоҳли луғати. – Тошкент, 2014.
7. То‘xliyev B. va boshqalar. Adabiyot. O‘rta ta’lim muassasalarining 11-sinfı va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarining o‘quvchilari uchun darslik-majmua. – Toshkent, 2018.
8. Тенишев Э.Р., Дыбо А.В. Сравнительно-истореская грамматика тюркских языков. Пратюркский язык-основа. Картина мира пратюркского этноса по данным языка. – Москва: “Наука”, 2006.
9. Улуков Н.М. Ўзбекча диний матнлар экзотик лексикаси. Филол.фан.номз...дисс.авторeref. – Тошкент, 1997.
10. Улуков Н. Экзотик лексика. – Тошкент: Усмон Носир медиа нашриёти, 2021.
11. Фарҳанги забони тоҷикӣ. – Москва, 1969. Культура языка таджика. - Москва, 1969.
12. Ўрозбоев А. Огаҳийнинг тарихий асарлари лексикаси. – Т.: Мухаррир, 2013.

Research Science and Innovation House